

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLA SHAXSI PSIXIK RIVOJLANISHIDA O'ZINI-O'ZI ANGLASHNING AHAMIYATI

Yusupov Umidjon

O'zbekiston milliy universiteti Jizzax filiali assistenti

Ortiqov Ibrohim

O'zbekiston milliy universiteti Jizzax filiali talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bola shaxsi psixik rivojlanishida o'zini-o'zi anglashning ahamiyati haqida fikrlar keltrilgan, bolalarning atrofdagilarga munosabati, psixik rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: bola, ixtiyoriy diqqat, ixtiyorsiz diqqat, psixika, muloqot, psixik inqiroz, induvidiallik, o'z- o'zini anglash, gumanistik psixologiya, ijtimoiy- kognitiv nazariyalar, rivojlanish psixologiyasi

Hozirgi kunda bog'cha yoshidagi bolalar psixikasini o'rganish va ularni harakter xususiyatidan kelib chiqqan holda rivojlanishiga ta'sir etish jarayonlarni o'rgansih muhim hisoblanadi. Insonda tug'ilgandan boshlab obektiv va subektiv omillar, shart-sharoit ta'siri doirasida jismoniy o'sish va psixik rivojlanish jarayoni kechadi. Ontogenetik rivojlanishning har bir bosqichida ijtimoiy muhit va munosabatlar ta'siri dinamik o'zgarishlar bilan bog'liqlikka ega. Individning dinamik xususiyatlari ijtimoiy muhit ta'siri natijasida yuzaga kelgan xulq-atvor sifatlarining shaxsiy o'zgaruvchanligi bilan belgilanadi. Inson atrof-muhit va jamiyatni o'rganar ekan bevosita va bilvosita obyektiv olam bilan butun umr munosabatda bo'ladi. Bu munosabat insonni hissiy-emotsional, intellektual rivojini, xatti-harakat ko'nikmalarini shakllantirib boradi. Hayotiy bilim, ko'nikma va malakani egallash jarayoni subyekt obyekt bilan o'zaro aloqasi interiorizatsiya va eksteriorizatsiya jarayoni bilan kechadi. Ya'ni tashqi muhit ta'siri individ ichki ruhiyatiga yo'nalishi va ichki ruhiy olamning tashqi muhitga qaratilishi, ta'siri tushuniladi. Asrimizning har bir davrida inson va uning jismonan ham ma'nan rivojlanib, kamol toptirib borish masalasi doim ustuvor masala bo'lib kelgan. Shaxsning o'zini-o'zi anglash jarayoni kognitiv(bilish) va ijtimoiy bilish jarayoni bilan uyg'un holda rivojlanib boradi. O'z-o'zini anglash jarayoni inson shaxsi ontogenetik rivojida yoshga xos psixik inqirozni adekvat (to'g'ri) yengishida, turli ijtimoiy muhitda o'z imkoniyatlarini anglagan holda o'z o'zni va mavqeyini topishida, o'z "Men" ligi istiqbolini ta'minlashida muhim ahamiyatga ega. Shaxs ichki subyektiv imkoniyatlari ichida o'zini-o'zi anglash jarayoni inson shaxsi kamolotida muhim ahamiyatga ega ekanligi bois, bu jarayonni ijtimoiy psixologik jihatdan o'rganish sotsiolog, psixolog tadqiqotchi olimlarning e'tibor markaziga

aylanib bormoqda. Negaki inson va uning kamolotini ta'minlovchi har qanday omilni o'rganish muhim bo'lib kelgan. Bugunga qadar o'zini-o'zi anglash bilan bog'liq aniq ta'rif qayd etilmagan bo'lsada, ko'plab tadqiqotchi olimlar tomonidan turli yosh va ijtimoiy muhit ta'sirida amaliy tadqiqotlarida o'rganib kelishmoqda. Xususan yurtimizda psixologiya sohasida faoliyat yuritayotgan tadqiqotchi olimlarimiz (M.G. Davletshin, G'.B.Shoumarov, V.M.Karimova, R.I.Sunnatova, E.G'.G'oziev, B.R.Qodirov, Sh.R.Barotov, Z.T.Nishonov, O'.B.Shamsiyev....) ilmiy izlanishlarida ham o'zini-o'zi anglash borasida o'z qarashlari aks etgan. O'z-o'zini anglash jarayoni milliy o'zligini anglash bilan uzviy bog'liq bo'lib, muayyan vaqt, muddat o'tishini, ya'ni ma'lum davrni taqozo etadi, lekin u ham evolyutsion, ham revolyutsion yo'l ta'sirida amalga oshishi mumkin. O'z-o'zini anglash borliq va jamiyatni in'ikos etishning yuqori bosqichi sanalib, pirovard natija sifatida yuzaga keladi, insonning donishmandligini namoyish qiladi. O'zini-o'zi anglash individning o'zini tashqi dunyodan ajratishi, unga bo'lgan o'z munosabatini anglashi, shaxs sifatida o'zini o'z xatti-harakatlari, fikr-mulohazalari, his-tuyg'ulari, qiziqishlari, istaklarini anglash va baholash jarayonidir. Ko'plab chet el olimlari tomonidan ham o'zlikni anglashning nazariy, amaliy va tadbqiqiy jihatlari muayyan darajada o'rganib kelinmoqda.

L.S.Vigotskiyning shaxsiy fikricha, o'zini o'zi anglash turli xil ma'nolar o'rtasida birlikni (umumiylikni) vujudga keltirish jarayoni sifatida va o'zlashtirilgan ong tariqasida namoyon bo'ladi.

A.N.Leontev talqiniga qaraganda, individual (yakka shaxsga oid) ongdagi mohiyat bilan mazmun o'rtasidagi ziddiyat o'zini o'zi anglashning sababchisidir.

A.N.Leontevning shogirdi V.V.Stolinning uqtirishicha, o'zini o'zi anglashning asosida (negizida) "menlik" ning mazmunlari o'rtasidagi ziddiyat yotadi.

B.G. Ananov izlanishlarida aks etishicha, o'zini o'zi anglashning paydo bo'lishi omili-odamning individual xosiyati, faoliyat subyektiligi, shaxslilik xususiyatlarining tarkib topishidagi notekislik va geteroxronlikdir. Uning mulohazasiga ko'ra, o'zini o'zi anglash ana shu uchala xususiyatni o'zaro muvofiqlashtiradi va xuddi shu tariqa onging individualligini ta'minlab turadi.

S. L. Rubinshteynning o'zini-o'zi anglashni shakllantirishning manbai ong va undagi ziddiyat bo'lmasdan, balki insonning tarkib topishi va rivojlanishi sanaladi. Ruhiiy faoliyatning maxsus holdagi (vaziyatdagi) obyektiv shart-sharoitlar sifatida odamlarning hayoti, umumiy yashash sharoiti deb yozadi.

Shaxsda o'zini-o'zi anglash darajasini o'rganilishi bo'yicha taniqli nazariyotchilardan A.Maslau, K.Rodgers, A.Bandura, J.Rotter, J.Piajelarning ilg'or fikrlari va amaliy tadqiqotlarini qayd etishimiz mumkin. Ushbu nazariyotchilarning ilmiy qarashlari va amaliy tajribalari bugungi kunda o'zini-o'zi anglash jarayonining butun dunyo olimlari tomonidan keng qamrovli va yanada to'liq o'rganilishiga nazariy metodologik asos bo'ldi deb ayta olishimiz mumkin. Negaki hozirda biz o'rganayotgan o'zini-o'zi anglash jarayonining

komponentlari va shakllanishining qarashlari ushbu olimlarning ilmiy va amaliy izlanishlari bilan ham bog'liq.

Xususan psixologiyaga motivatsiyalarning ierarxik modelining muallifi A.Maslouning shaxs o'zini shakllantirishda ehtiyojlarning ham o'z o'ri bor ekanligi to'g'risidagi qarashlarini ko'rishimiz mumkin. A.Maslouning ehtiyojlarining ierarxik modeli doirasida o'rtacha insonning qondirishi kerak bo'lgan 5 ta ehtiyojlarini ko'rsatib o'tgan. Ierarxiyadagi quyi (asosiy) ehtiyojlar yuqori darajadagi ehtiyojlar inson xatti-harakatlarida turtki beruvchi kuchlarning dominantiga aylanishidan oldin ratsional ravishda qondirilishi kerak. Bu erda Maslouning ehtiyojlari ierarxiyasi ularning ustunligi yoki zarurati tartibida keltirilgan:

- 1) fiziologik;
- 2) xavfsizlik va himoya;
- 3) tegishli bo'lish va muhabbat;
- 4) o'z-o'zini hurmat qilish;
- 5) o'z-o'zini anglash.

Maslou nazariyasining gumanistik mohiyati, ayniqsa, o'z-o'zini anglash, o'z imkoniyatlarini maksimal darajada ro'yobga chiqarish istagi kontseptsiyasida yorqin namoyon bo'ladi. Maslou nazariyasi bo'yicha bir vaqtda bir necha ehtiyojlari bolishi mumkin ammo quyi ehtiyojning qondirilmasligi keyingi ehtiyojning yuzaga chiqishiga zarurat bo'lmasligini qayd etadi. Ushbu qarashga ko'ra bola tug'ilgandan har bir bosqichdagi ijtimoiy psixologik rivojlanish davrida ehtiyojlar ham o'z ta'sirini o'tkazishini ko'rishimiz mumkin. Birlamchi fiziologik ehtiyojlarning qondirib borilmasligi bola xulq-atvorida ham salbiy xususiyatlarning shakllanishiga olib kelishini misol qilib keltirishimiz mumkin. Masalan: go'dak va chaqaloqlik davrida bolaning organik ehtiyoji ovqatlanish yoki dam olish ehtiyojining hissiy va emotsional yaqin kishisi tomonidan to'la qondirilmasligi, bolada o'zini xavfsiz va himoyasiz his qilmasligini, injiqlik va qaysarlik hislatlarining shakllanishini kuzatishlar, bir qancha tadqiqotlarda isbotlanganligini ko'rishimiz mumkin. Bolada o'zini –o'zi anglash komponenti o'zini boshqaradigan darajada shakllangunga qadar Maslouning fundamental ehtiyojining qondirilishi ham ta'sir etuvchi omil bo'lishi mumkin.

Taniqli nazariyotchilardan biri K.Rodjers shaxsning fenomologik nazariyasida ham o'zini anglash borasidagi qarashlarini ko'rishimiz mumkin. O'z nazariyasida odamni uzoq maqsadlarga yo'naltirilgan va o'zini-o'zi maqsad sari yetaklay oladigan faol mavjudot deb qayd etishgan. Rodjersning ta'kidlashicha, odamlar aksariyat hollarda o'zlarining shaxsiy tushunchalariga muvofiq yo'l tutishadi. Agar odam o'zini o'zi anglash tushunchasi va umumiy organizm tajribasi o'rtasida nomuvofiqlikni sezsa, tahdid paydo bo'ladi. Keyin u idrokni buzish yoki inkor qilish orqali "o'zini" yaxlitligini himoya qilishga urinadi. O'z-o'zini anglash va haqiqiy tajriba o'rtasidagi juda katta tafovut shaxs xulqida o'zgarishga va psixopatologiyaga olib keladi. Rodjers shaxs nazariyasi talqiniga ko'ra tashqi obyektiv olamni subyektiv idrok qilishi orqali baholashini qayd etadi. Aynan subyektiv idrok qilish ya'ni baholashi o'z

ehtiyojlariga va xohishiga to'g'ri kelishini tahlil qilish jarayonini o'zini anglash jarayoni shaxs xulq atvorida muhim jihat ekanligini qayd etadi. Shuningdek barcha shaxs xususiyatlar "Men" konsepsiyasida o'z aksini topishini talqin etadi. Demak shundan korinadiki o'zini-o'zi anglash jarayoni bevosita va bilvosita psixik rivojlanish bilan uyg'un holda shakllanadi deb ayta olamiz. Psixologik xususiyatlar va o'zlikni anglash jarayoni o'rtasida doimiy bog'liqlik mavjudligi aks etadi. Albatta bola shaxsi ijtimoiy psixologik rivojlanishi irsiyat, muhit va ta'lim kabi ta'sir etuvchi omillar ta'sirida rivojlanadi. Rodjers yana hayotiy tajribaning ham shaxs boshqaruvida o'z o'rnini bor ekanligini qayd etadi. Ya'ni o'z shaxsiy hayotiy tajribalari xulq-atvorni namoyon qilishga va o'zini anglash jarayoni orqali o'z hayotining yetakchi boshqaruvchisiga ega mustaqil shaxs ekanligini tushuntirishga harakat qiladi.

O'zini-o'zi anglash jarayonining bilish jarayoni bilan bog'liq holda rivojlanishi ijtimoiy-kognitiv nazariyalar yo'nalishining paydo bolishi bilan bog'liq. Ushbu yo'nalish yorqin tadqiqotchilariga Albert Bandura va Julian Rotterning shaxs xulq-atvorini tavsiflovchi ijtimoiy kognitiv qarashlarini keltirib o'tishimiz lozim. Bandura aqliy faoliyatni xulq-atvor, kognitiv va atrof-muhit omillari o'rtasidagi uzluksiz ta'sir o'tkazish nuqtai nazaridan yaxshiroq tushuniladi deb hisoblaydi. Bu shuni anglatadiki, xatti-harakatlar, shaxsiyat va ijtimoiy ta'sirlar bir-biriga bog'liq bo'lgan determinantlardir, ya'ni xatti-harakatlarga atrof-muhit ta'sir qiladi, ammo odamlar ijtimoiy muhitni yaratishda va ularning har bir jarayonida yuzaga keladigan boshqa holatlarda ham faol rol o'ynaydi. Yuqorida biz qayd etganimizdek hayotiy tajriba ham xulq-atvor namoyon bo'lishida muhim ro'li bo'lgani kabi ushbu yo'nalish vakillarining ham qarashlarida tashqi muhit bilan bog'liq bo'lgan jarayon ya'ni kuzatish va hayotiy misollarning o'rnini alohida qayd etishadi. Unga ko'ra odamlar kuzatish orqali o'z qobiliyatlarini rivojlantiradi va bu o'zlashtirilgan bilimdan ma'lum ko'nikma va malakani kengaytiradi. Bandura fikriga ko'ra o'zini-o'zi boshqarishning uchta tarkibiy qismi mavjud:

- o'zini-o'zi kuzatish;
- o'zini-o'zi baholash;
- o'z-o'ziga javob berish.

Banduraning ilmiy va amaliy ishlaridagi qarashlariga ko'ra kognitiv jarayon tashqi ta'sirga javoban xatti-harakatni boshqaruvchisi ekanligini biz yuqorida ta'kidlamoqchi bo'lgan psixik jarayonlarning o'zini-o'zi anglash jarayoni bilan bog'liqligini shu kabi taniqli nazariyotchilarning ishlarida ham ko'rsak bo'ladi.

Huddi shu yo'nalishning taniqli vakillaridan yana biri Julian Rotter bo'lib xulq-atvorni ijtimoiy sharoitda qanday o'rganish mumkinligi o'zining ishlarida ko'rsatishga harakat qilganini ko'rishimiz mumkin. Rotter ham Bandura singari xatti-harakatimiz bizning fikrlash va taxmin qilishimiz orqali namoyon bo'lishiga ishongan. Odamlar ma'lum vaziyatlardan nima qilishini bashorat qilganda idrok qilishini, natijani kutishi kabi bilimga ega bo'lishlari haqida aytib o'tadi. Rotter ham Bandura kabi odamni o'zini turli vaziyatlarda o'zini boshqara oladigan kognitiv mavjudot deb talqin etadi. Bundan tashqari Rotter odamni kutilmagan

vaziyatlarga nisbatan javob beruvchi umumiy formulalarni ham qayd etadi. Rotterning fikriga ko'ra o'qitishning asosiy tuzilmasi- odamlar o'z hayotidagi mustahkamlashni boshqarish darajasini kutishini aytib o'tadi.

O'zini –o'zi anglashni o'ziga yo'naltirilgan e'tibor va xatti-harakatlarning o'zgarishi yuz beradigan jarayon sifatida o'ylash mumkin. Bu o'zgarish shaxs o'zi va jamoatchilik tomonidan amalga oshiriladi. Unga ko'ra xulq va me'yor o'rtasida tafovutni aniqlashda o'zini-o'zi anglash muhimdir. O'zini-o'zi anglashni rivojlantirish – o'z harakatlarida fikr yuritish qobiliyatidir. Shuningdek Jie Yin Kant modeli bilan refleksivlik tushunchasi bilan qayta qurish orqali o'zini-o'zi anglash mumkinligini o'z tadqiqotida keltirib o'tadi. O'zini-o'zi anglash fikrlash epizodlarida amalga oshiriladi. Kant modeliga ko'ra o'zini obekt sifatida ko'ra olsa, o'zini-o'zi anglash mumkin.

O'zini-o'zi anglash jarayoni yaxlit tuzilmaga ega bo'lib, o'z ichiga bir qancha:

- o'zini - o'zi bilishi;
- o'zini - o'zi munosabat;
- o'zini - o'zi his qilish;
- o'zini - o'zi nazorat qilish;
- o'zini - o'zi boshqarish komponentlarini kiritish mumkin. Tadqiqotchi psixolog olimlarning ta'kidlashicha o'zini -o'zi anglash komponentlarining rivojlanib borishi individ, shaxsning o'z "Men" lik obrazini shakllantiradi. Shu o'rinda D.Midning fikricha, o'z-o'zini anglash bu – birgalikdagi faoliyati tufayli birlashgan odamlarning ko'zi bilan o'ziga boqishdir.

Haqiqatdan ham anglashimiz lozimki, buguni kunda har bir shaxsning yosh bo'yicha ijtimoiy-kognitiv rivojlanishidagi krizislarni kamaytirishimiz, o'z hayotiga to'la qonli o'zi mustaqil javobgar ekanligini singdirishimiz, jamiyatga faqat o'zini ruhan boshqara oladigan va rivojlantira oladigan yoshlarni shakllantirishimiz uchun, o'zini-o'zi anglash jarayonini to'la qonli tushunishimiz, anglash jarayonini shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarini bilishimizni va uni shakllantiruvchi shart-sharoitlarni umumiy qonuniyatlarini aniqlashimiz lozimligini ko'rsatib bermoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yusupov, U. (2022). Gaybullayeva M. Yoshlarning ijodiy tafakkurini shakllantirish. Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar, 1(1), 515-518.
2. Nikolaevich, U. P., & XXX, S. A. (2022). Emotional Intelligence and its Adolescents Being an Exemplary. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 15, 139-145.
3. Yusupov, U. (2022). Ergasheva M. Bolada axloqiy va madaniy malakalarni shakllantirishda oilaning roli. Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar, 1(1), 442-445.

4. Usarovna, M. R., & Ibrahimovna, S. Z. (2019). Yuldoshev Sardor Asliddin oâ€™TM gli, Akhmedova Shokhida Mukhtarovna. THE EDUCATION OF TALENTED STUDENTS AS A PEDAGOGICAL PROBLEM. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)-ISSN, 2455-3662.
5. Yo‘ldoshyev, S., & Sultonaliyeva, G. (2023). SUITSIDAL HOLAT VA UNING KELIB CHIQISH SABABLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1).
6. Arakulov, G. (2023). МАКТАBGACHA YOSHDAGI BOLALARDA DIQQAT MUHIM PSIXIK FENOMEN SIFATIDA. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1).
7. Юсупов, У., & Ермаматова, Г. (2022). Deviant xulq-atvor shakllanishining ijtimoiy psixologik omillari. Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы, 1(1), 448-450.
8. Salim o‘g‘li, Y. U. (2022). PSIXOLOGIK AXBOROT XAVFSIZLIGI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 66-72.
9. Yusupov, U., & Baxtiyorova, M. (2022). Ijtimoiy gender stereotiplar. Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar, 1(1), 452-455.
10. Komilova, A., & Adilova, M. (2023). AGRESSIYA–OSMIRLARDA YUZAGA KELADIGAN TAJOVUZKORLIK RIVOJLANISHIGA TASIR ETUVCHI FENOMEN SIFATIDA. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1).